

Araştırma Makalesi / Research Paper

O'zbek Adabi Tili Imlo Qoidalarining Shaklanishida Qayum Ramazonning O'rni

Inomjon AZIMOV*

Annotatsiya

O'tgan asrning boshlarida tarix sahnasiga chiqqan o'zbek ziyolilari jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy inqirozni bartaraf etishni, o'z vatanini tivojlangan mamlakatlar qatorida ko'rishni orzu qildilar, o'z orzularini amalga oshirish uchun kurash maydoniga chiqdilar. Ular tarix zarvarqlariga "jadidlar" nomi bilan kirdilar. Ular, eng avvalo, millatni savodli qilishga, ma'lum qoidalariga asoslangan adabiy til yaratishga harakat qildilar. Buning uchun maktablar ochdilar, milliy matbuot, milliy teatr faoliyatini yo'lga qo'ydilar. Jadidlar o'zlari tashkil qilgan yangi usuldagi maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonida arab yozuvida o'zbekcha tovushlarning ifodalanishidagi kamchiliklar, imlodagi muammolar ko'zga tashlanib qoldi. Ularni bartaraf etish uchun yozuvni isloh qildilar, milliy imlo qoidalarini ishlash harakatiga tushdilar. O'zbek adabiy tili imlo qoidalarini shakllantirishda atoqli ma'rifatparvar Qayum Ramazonning xizmatlari bo'qiyosdir. Qayum Ramazon boshqa jadid ziyolilari kabi pedagoglik faoliyati bilan shug'ullangan. Bundan tashqari, Fitrat boshchiligidagi tashkil qilingan "Chig'atoy gurungi"ning faol a'zosi bo'lgan, Toshkent eski shahar maorif bo'limida nazoratchi sifatida maktablardagi til-adabiyot darslari metodikasini ishlash, maktablar faoliyatini nazorat qilish vazifasini bajargan. Mana shu jarayonlardagi amaliy tajriba asosida "Ona tili" (1918, hammualliflikda), "O'zbek tili saboqligi" (1925, hammualliflikda), "Yer yuzidagi tillar orasida o'zbek tili" (1930), "O'zbek adabiy tilining imlo qoidalari" (1931), "O'zbek adabiy tilining birlashgan imlo qoidalari" (1934), "Sarf" (1937) kabi asarlarni yozib nashr ettirgan.

Geliş Tarihi/Date Applied: 16.02.2025

Kabul Tarihi/Date Accepted: 20.06.2025

Makalenin Künyesi: Azimov, I. (2025). O'zbek adabiy tili imlo qoidalarining shakllanishida ayum Ramazonning o'rni. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 60, 101-118.

<https://doi.org/10.24155/tdk.2025.256>

* Doctor of Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, ORCID: 0009-0001-4803-7166, inomjon66@mail.ru.

Mazkur maqolada uning 1931-yilda nashr qilingan “O'zbek adabiy tili-ning imlo qoidaları” asari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadid, “Chig'atoy gurungi”, imlo, tovush, cho'zg'i, harf, singarmonizm, qalinlik, ingichkalik, ism, fe'l, me'yor

Özbek Edebî Dilinin İmla Kurallarının Şekillenmesinde Kayyum Ramazan'ın Yeri

Öz

20. asrın başlarında tarih sahnesine çıkan Özbek aydınları, toplumdaki ekonomik, siyasal ve kültürel krizleri ortadan kaldırmayı, vatanlarını geliştirmiş ülkeler arasında görmeyi hayal ettiler. Bu hayallerini gerçekleştirmek için mücadeleye atıldılar. Tarih sayfalarına “Ceditler” (Jadidler) olarak girdiler. Onlar, her şeyden önce milleti okur yazar yapmaya, belirli kurallara dayalı bir edebî dil yaratmaya çalıştılar. Bunun için okullar açtılar, millî basın ve millî tiyatro faaliyetlerini başlattılar. Ceditler, kurdukları yeni usuldeki okullarda eğitim öğretim sürecinde, Arap alfabesindeki Özbekçe seslerin ifade edilmesindeki eksiklikleri ve imla sorunlarını fark ettiler. Bu sorunları gidermek için yazıyı ıslah ettiler, millî imla kurallarını oluşturma çabalarına giriştiler. Özbek edebî dili imla kurallarının şekillendirilmesinde ünlü aydınlardan Kayyum Ramazon'un hizmetleri oldukça büyüktür. Kayyum Ramazan, diğer Cedit aydınları gibi pedagojik faaliyetlerle uğraşmıştır. Ayrıca Fitrat'ın liderliğinde kurulan “Çagatay Gurubu”nun aktif bir üyesi olmuş, Taşkent Eski Şehir Eğitim Müdürlüğünde denetçi olarak okullardaki dil ve edebiyat derslerinin metodolojisini geliştirme, okul faaliyetlerini denetleme görevini yerine getirmiştir. Bu süreçteki pratik deneyimleri ışığında “Ana Dili” (1918, ortak yazarlarla), “Özbek Dili Dersleri” (1925, ortak yazarlarla), “Dünyadaki Diller Arasında Özbek Dili” (1930), “Özbek Edebiyat Dilinin İmla Kuralları” (1931), “Özbek Edebiyat Dilinin Birleşik İmla Kuralları” (1934), “Sarf” (1937) gibi eserler yazıp yayımlamıştır. Bu makalede, 1931 yılında yayımlanan “Özbek Edebiyat Dilinin İmla Kuralları” adlı eseri ele alınacaktır.

Anahtar Kelimeler: Cedit, “Çagatay Grubu”, imla, ses, uzunluk, harf, singarmonizm, kalınlık, incelik, isim, fiil, ölçüt

The Role of Qayum Ramazon in the Formation of the Orthographic Rules of the Uzbek Literary Language

Abstract

At the beginning of the last century, Uzbek intellectuals beginning to gain literary recognition dedicated themselves to eliminate the economic, political, and cultural crisis in society, and to see their homeland among the developed nations of the world. To achieve their objectives, they stepped onto struggle. So, their struggle under the name “Jadids” took its deserved place in history. First and foremost, they aimed to make the nation literate and to create a literary language based on certain rules. To this end, they opened schools, established national press, and organized national theater activities. In the education process of the new-style schools organized by the Jadids, shortcomings in the representation of Uzbek sounds

in the Arabic script and problems in orthography became evident. To address these issues, they reformed the script and worked on establishing national orthographic rules. In the formation of the orthographic rules of the Uzbek literary language, the services of the prominent intellectual Qayum Ramazon are invaluable. Like other Jadid intellectuals, Qayum Ramazon was involved in educational activities. Additionally, he was an active member of the “Chigatoy gurungi” organized under the leadership of Fitrat, and served as a supervisor in the Department of Education of Old Tashkent, responsible for developing the methodology of language and literature lessons in schools and monitoring school activities. Based on practical experience in these processes, he wrote and published works such as *Mother Tongue* (1918, co-authored), *Lessons in Uzbek Language* (1925, co-authored), *Uzbek Language Among the Languages of the World* (1930), *Orthographic Rules of the Uzbek Literary Language* (1931), *Unified Orthographic Rules of the Uzbek Literary Language* (1934), and *Morphology* (1937). This article discusses his work *Orthographic Rules of the Uzbek Literary Language* (1931).

Keywords: Jadid, “Chigatoy gurungi”, orthographi, sound, length, letter, singarmonizm, deepness, thinness, noun, verb, criteria

Jadidlar faoliyatida imlo muammolari katta o‘rinni egallaydi. Millat oydinlari rivojlangan davlatlar tillari kabi qat’iy qoidaga ega bo‘lgan imlo qoidalarini ishlab chiqishga harakat qildilar. Turli davralardagi munozaralar, mutaxassislarning matbuotdagi chiqishlari imlo qoidalarining yaratilishiga zamin bo‘ldi.

Imlo qoidalarining dastlabki tajribasi sifatida Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” tomonidan tayyorlangan “Bitim yo‘llari” risolasini keltirish mumkin. “Bitim yo‘llari”ga hozirgi dastur, yo‘riqnoma, o‘quv qo‘llanmasi, darslik kabi didaktik shakllar nuqtayi nazardan qaralganda, ularning hech biriga to‘liq mos kelmaydi. Aslida mualliflarning o‘zlariga quloq soladigan bo‘lsak, u imlo qoidalari to‘plamiga ko‘proq yaqin keladi. Ularning “Til bilan yazuvimizni belgili bir yo‘lg‘a qo‘yub...” degan so‘zlariga ko‘ra u imlo qoidalarini anglatadi (Azimov, 2024, b.225). Qayum Ramazon ham uni imlo qoidalari sifatida e‘tirof etadi: “Bashqa fanlarni qo‘yib turaylik, maktablarimizning jan tamiri bo‘lg‘an “Til qaidalari” atig‘a shu kungacha bir asar chiqmadi. “Bitim yo‘llari” bilan “Yazuv yo‘llari” esa imladin bahs etar” (Qayum Ramazon 1923).

Shuni alohida qayd etish kerakki, imlo masalasida jadidlar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud edi. Sh.Bobomurodova o‘sha davrda imlo masalasida quyidagi oqimlar mavjudligini qayd etgan: “1. Hech bir usulga va qoidaga rioya qilmasdan qadimiy imlo asosida yozmoq tarafdorlari bo‘lmish qadimchilar; 2. Turkiy so‘zlarni usuli savtiya (tovush usuli) asosida eshitilganча, arabiy so‘zlarni esa o‘z imlosi bilan yozmoq tarafdorlari; 3.

Turkiy va arabiy soʻzlarning hammasini tovush usuli bilan yozmoq tarafdorlari; 4. Turkiy tilimizda yot boʻlgan harflarni butunlay chiqarib, arab soʻzlarini ham oʻz tovushlarimiz bilan yozmoq tarafdorlari; 5. Arab harflarini butunlay tashlab, uning oʻrniga lotin yozuvini qabul etmoq tarafdorlari” (Bobomurodova 2002, b.202).

Mana shunday murakkab sharoitda yana bir imlo loyihasi ishlab chiqilib, “Maorif va oʻqitʻuchi” jurnalining 1926-yildagi 7 – 8-sonlarida eʼlon qilinadi. Mazkur loyihani ham qoʻyilgan talablarga javob beradigan imlo qoidalarini deb ayta olmaymiz, chunki qoidalarda asosan singarmonizm qonuniyatiga asosiy eʼtibor qaratilib, feʼllarning, qisman ismlarning qalinlik, ingichkalikka amal qilgan holda toʻgʻri yozilish qoidalarini xususida soʻz yuritiladi (Azimov 2024, b.162).

Imlo qoidalarini tuzishda qaysi jihatni (fonetik – savtiy, morfologik – sarfiy) asos qilib olish masalasida ham jadidlar oʻrtasida jiddiy munozaralar boʻladi. Masalan, Shokirjon Rahimiy milliy imlo uchun asos fonetika, yaʼni eshitilgancho yozish asos boʻladi degan fikrni ilgari suradi, lekin bu prinsip har doim ham toʻgʻri emasligi, chunki bir oʻrinda bir xil, boshqa oʻrinda boshqacha yoziladigan soʻzlar mavjudligini aytadi. Agar yolgʻiz fonetikaga asoslanilsa, yuqoridagi holat boʻyicha anarxiya yuzaga kelishini, shu sababli imloda eshitilgancho yozish bilan birga, sarfiy (morfologik) asosga rioya qilish lozim deydi. Shuning uchun ham mazkur qoidalarini tuzishda asosan ikki usul – savtiy (fonetik), sarfiy (etimologik – morfologik) amal qilinishi, tilimizda bir qancha shevalar (lahjalar – I.A) boʻlganligi sababli taʼlim-tarbiya ishlarida yengillik boʻlishi uchun har ikki usuldan foydalanishga qaror qilingani aytiladi (Azimov 2024, b.162).

Umuman olganda, “Yangi oʻzbek alifbasida imla qoidalarini” loyihasini dastlabki tajriba sifatida eʼtirof etish mumkin. “buzuq, qoidasiz” (Fitrat) boʻlgan tilni maʼlum qoidalarga solish, bu yoʻlda maʼlum tayyorgarlikka ega boʻlish, boshqa tillar tajribalari bilan yaqindan tanishgan boʻlish lozim edi. Lekin mana shunday murakkab ishga qoʻl urishlari, kamchiliklari boʻlsa-da, oʻz tasavvuridagi imlo qoidalarini ishlab chiqqan jadidlar faoliyatini yuqori baholash mumkin. Mazkur loyiha qayta-qayta muhokama qilinib, takliflar olinadi, qardosh turkiy xalqlar tajribalari asosida takomillashtirilib, mukammallashtirilib boriladi.

Singarmonizm masalasi

Imlo qoidalarini ishlab chiqishda eng katta muammolardan biri bu singarmonizm masalasi edi. Barcha turkiy tillar uchun xos boʻlgan bu qonuniyatga jadidlar oʻrtasida turlicha qarashlar bor edi. Ibrohim Tohiriy singarmonizmga shunday taʼrif beradi: “Singarmoʻnizm toʻgʻrisida tilimizni bizdan koʻbrak, fanniyrak bilgan Avrupeʼ alimlari fikrlarini tinglangiz:

To'msen: singarmo'nizmi: garmoniya glasnix deydi. Melio'ranskiy esa: "garmoniya zvukov v progressivnom poryadke" deb ta'bir qiladilar. Qanday bo'lsa ham tavushlarning bir-biriga ta'siri yarashub, uyg'unlashib ketishi ma'nasida anglaydilar. Buning sababi tavushlarning bir-biriga ta'sir etishi – bu esa tavush yasaydurg'an a'zalarimizning yalqavlig'i, dangasaligi natijasi" (Tohiriy 1929).

Qayum Ramazon bu qonuniyatni shunday tushuntiradi: "Bizdagi singarmo'nizm ayrim tavushlar yoki ayrim harflar ta'siri bilan bo'lmay, butun so'z turishicha aling'andag'i tabiatdir. Tavushlar tizmasi so'z yasalar ekan, boshlab aytilishig'a qalg'an tavushlar va qo'shimchalar ergashib ya ag'iz aldidanraq aytiladirkim, ingichka so'z, ingichka tavush deymiz yoki ag'iz arqasidanraq aytiladirkim, yo'g'an so'z, yo'g'an tavush deymiz:

So'z yasavchi barcha qo'shimcha (xah yangi so'z yasavchi, xah harbaliq yasavchi) *qş+la+t+tr+ma*;

So'z turlavchi qo'shimchalar (xah fe'l, xah ism turlavchilar) *jazdq, keləjəpti, qşlaqlarmzda* kabi.

Bundan boshqa ko'makchi qo'shimchalar: كى (-ky) كى (-ki) kabilar va كى (ak) qo'shimchasi *g'ijjak, varrak* so'zlarida ham, نىكى (niki) qo'shimchasi *bizniki, qishloqniki* so'zlaridagi har daim ingichka aytiladir" (Q. Ramazon, 1929). Fitrat o'zbek tilini turkiy tillar tarkibidagi bir til sifatida barcha turkiy tillarda u yoki bu darajada mavjud bo'lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors-tojik tilining ta'sirida buzilganini, shuning uchun umumturkiy fonetik xususiyatini ko'proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish juda to'g'ri ekanini takidlaydi (Fitrat 2006, b.143).

Otajon Hoshimning fikricha, singarmonizm butun turk tili lahjalariga xosdir. U turk tili asosidir. Singarmonizm turk tilining temir qonunidir. Bunday temir qonun boshqa tillarda yo'q. Singarmonizm qonuni shundan iboratki, turkcha har bir so'z yo qalin, yo ingichka bo'ladi. Masalan, *o't-o'tg'a, it-itgə*. Mana shu qonun o'zbek lahjasida bo'lgani kabi boshqa turk lahjalarida ham bor. (Ozarbayjon, turkman, qozoq, qiryoiz, tatar va boshqa lahjalarda) (Atajan 1927, b.54-60).

O.Hoshimov o'zlashgan (arab va fors) so'zlarda singarmonizmning amal qilishiga to'xtaladi va "Bu chet arab, fors so'zlari ko'pincha qalinlik va ingichkalik, ya'ni singarmonizm qonunig'a bo'ysunmaydi" deydi va bunday so'zlarning o'zbek tilida, shuningdek, boshqa turkiy tillarda juda ozligi va u turkiy tillardagi singarmonizmning ahamiyatini yo'qotmasligini ta'kidlagan holda, bunday so'zlarni ham imlo qoidalarini ishlash chog'ida singarmonizmga bo'ysundirish lozimligini uqtiradi (Yangibayeva 2019, b.66).

Ashurali Zohiriy singarmonizmni shunday ta'riflaydi: "Singarmo'nizm turk-tatar tilining tabiiy tiligidur. Lekin zamanning o'tishi, jo'g'rofi(y) ahvallarning o'zgarishi, bir qavmning bashqalar bilan aralashishi va ularning tillarining ta'siri arqasida bu xususiyat turk lahjalarining bir xillarida yo'qala barg'an (azarbayjan, anqara turklarida). Bu xususiyatni saqlab qalg'anlar: qazaq, qirg'iz, nug'ay, bashqirt, tatar, turkman va o'zbeklardur" (Zahiriy 1929). Olim o'zbek tilida singarmonizm hodisasi borligini shunday ta'kidlaydi: "Bizda singarmonizm yuz faiz bo'lg'usidur. Tilimizga aralashg'an ajnabiy so'zlarni ham o'z qaidamiz (singarmonizmga) bo'yin tavlaydurg'anlari o'rnig'a o'z tilimizdan so'zlar tapishg'a harakat qilamiz" (Zahiriy 1929).

Elbekning ta'rificha, singarmo'nizm ko'p kishilarni cho'chitkan, ba'zi bir kimsalarning kulgi va so'kish to'rvalarining yorilishiga sabab bo'lgan bu "so'z" chindan imlomizning butinligini saqlash uchun, ilm va tilimizning ko'rkini oshirish uchun bir bezakdir. Bu qalinlik va ingichkalik ohangi bizning tilimizning jonidir, yiqilmas qo'rg'onidir. Buni bilmagan turk xalqi yo'q desak, yanglishmaymiz. Bunga qarshi bo'lganlar shubhasiz, shu tilning grajdanlik huquqiga zarba bergusidurlar. Abdurahim Yo'ldosh singarmonizmga munosabatda bo'lganlarni ikki guruhga ajratadi: 1. Singarmonizmni temir qonuniyat deb atovchilar, tildagi barcha so'zlarni yuz foiz shu qonunga bo'ysundiruvchilar. 2. O'z so'zlarimizni bu qonunga bo'ysundirib, chet so'zlarni mumkin qadar singarmonizmga moslab, qolganlariga eshutilgancha yozuvchilar. Birinchi guruhni u "100 pirasanchilar", ikkinchi guruhni "istisnochilar" deb ataydi. Uning o'zi har ikki guruhga ham qo'shilmasligi, har ikki guruh fikrlariga qisman qo'shiladigan, ularni qisman tanqid qiladigan o'rinlari borligini aytadi. Najib Osim Abdurahim Yo'ldoshning bu fikrlariga munosabat bildirib, uning o'zi ham asli istisnochilar toifasidan ekanini aytadi: "Yo'ldashev "mumkin qadar"chilarg'a hujum qiladi. Halbuki, o'zining ham shular qatarig'a kirib qalg'anini sezmaydi. Yo'ldashev va Yo'ldashevning tarafdarlari "mumkin qadar"chilarning bir guruhini tashkil qilg'ani kabi, ularning o'rtasida shunga o'xshag'an guruhlar az emas" (Azimov 2023, b.248-249).

Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi hamda turk alifbosi Butunittifoq markaziy qo'mitasining plenumlarida singarmonizm masalasi jiddiy muhokama qilinadi. Munozaralarda I.Alparov, N.Hakimov va B. Cho'ponzodalar ham ishtirok etib, o'z fikrlarini turkiy tilda bildirishgani, lekin chop etilgan anjuman materiallarida ularning fikrlari keltirilmagani aytib o'tiladi (Xudoyberdiyev 2024, b.29). Munozarada ishtirok etgan tatar tilshunosi O.Ibrohimov singarmonizmga qarshi chiqqan B.Cho'ponzodaning fikrlariga munosabat bildirib, turkiy tillardagi singarmonizm va

agglyutinatsiya haqidagi fikrlari noto'g'ri ekanligi, singarmonizm turkiy tillarga xos xususiyat bo'lib, turkologiyaga oid barcha akademik nashrlarda alohida nazariya sifatida qayd etilganini aytadi (Xudoyberdiyev, 2024, b.29). Mana shunday munozaralar, tortishuvlardan so'ng singarmonizm o'zbek tilida ham asosiy qonuniyat sifatida e'tirof etiladi hamda yanada mukammalroq imlo qoidasi mazkur qonuniyat asosida tuziladi. 1929-yil may oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasida imlo masalasi kun tartibiga alohida masala sifatida kiritilib, 29 bandedan iborat imlo qoidalari loyihasi muhokama qilinadi va tasdiqlanadi (Azimov 2023, b.209). M.Qurbonova mazkur imlo qoidalariga to'xtalib, ushbu qoidalar o'zbek tilining milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganini alohida ta'kidlab o'tadi (Qurbonova 1993, b.66-67).

Konferensiyadan so'ng Til, Termin Davlat Qo'mitasi mazkur loyiha-ga zarur sharhlar yozib, alohida qo'llanma yozishni Qayum Ramazonga topshiradi. Shu tariqa uning "O'zbek adabiy tilining imlo qoidalari" asari yuzaga keladi. Bu haqda risolaning avvalida Qo'mitaning quyidagi fikrlari keltirib o'tiladi.

(Ramazan 1931): *Shu vaqtoqqa qadar ʻmlla anarxʻjasʻdan qutula almadʻq. Bir necʻa mʻrtʻbʻ tʻl-ʻmlla kʻnferensijʻlʻrʻ saqʻrʻldʻ. Ular ilimij asasda tʻl-ʻmlla mʻsʻlʻlʻrʻni hal qʻla almadʻ. Shu sʻbʻbli imlamʻzda aʻlab bolmasʻlʻq kʻn anarxʻja tuʻqʻldʻ. Hʻr kim ʻz istʻgʻncʻ yazdʻ. ʻlbʻttʻ, bu kʻjʻijʻt bilʻn qʻlʻv hʻm mymkyn emʻs edi. Mʻnʻ shu hallarnʻ nʻzʻrgʻ alʻb, ʻzbekistan Yanʻ ʻlifbe Mʻrkʻzii Kʻmitʻsi yana tʻl-ʻmlla kʻnferensijʻsi saqʻrdʻ. Kʻnferensijʻdʻ ʻmlla, termin (ʻstʻlah), adabiy tʻl mʻsʻlʻlʻrʻ qaralʻdʻ. Bir qancha ʻzgʻrʻslʻr yasaldʻ. Bu kʻnferensijʻ ʻtgʻn kʻnferensijʻlʻrgʻ qaraʻqanda sʻmʻrʻli boldʻ vʻ qʻjʻlʻqan mʻsʻlʻlʻrʻni ilmiy rʻviʻdʻ hʻl qʻldʻ. Endi qʻlʻnʻqan iʻslʻrni turmuʻqqa aʻʻruvʻʻna qaldʻ.*

Imlamiz mʻsʻlʻsi bizdʻ hazʻr rʻsmiy syrʻtdʻ hʻl qʻlʻndʻ desʻk mymkyn. ʻzbekistan Maarʻf Xalq Kʻmisʻrligi tʻl-ʻmlla kʻnferensijʻsinin qararlarʻnʻ butunlay tasdiqlaydʻ (ʻzbekistan Maarʻf Xalq Kʻmisʻrligining 1929-yʻl 10-avgistda bolʻqan 73-nʻmirli kʻllegijʻ mʻclisi), endi ʻymhyrijʻt mʻqyasʻda bolʻqan kyndʻlik matbuat, naʻrʻjat iʻslʻrimiz, mʻktʻb, ilmiy vʻ umumʻ mʻʻssʻslʻrimiz shu qollanma bojunca iʻ jrytylʻri kerʻk. Tʻl-ʻmlla kʻnferensijʻsinin qararlarʻnʻ kʻmintʻrijʻ ʻaklidʻ iʻlʻb ʻquv ucyn orta-q Qayum Ramazanʻq tarʻʻrʻlʻqan edi. Kʻmitʻ ʻzining ilmiy xadʻmlarʻ bilʻn bolʻqan kʻn mʻjlisdʻ bir qancha kyn tekʻirib ʻqʻb bir qancha tyzʻtiʻslʻr bilʻn tasdiqladʻ. Kʻmitʻ bu ʻsʻrni qollanma olara-q taqʻdm etʻdi" (b.3).

Unli va undoshlar masalasi

Unlilar sonini belgilashda ham jadidlar o'rtasida turlicha qarashlar bor edi. Bunday fikrlarning tug'ilishiga o'zbek tilida turkiy tillardagi har uch lahja (qarluq, qipchoq, o'g'iz)ning mavjudligi bo'lib, ularda singarmonizmga qat'iy amal qiluvchi, singarmonizm buzilgan shevalar ham mavjud edi. Bu haqda A.Alaviy shunday yozadi: "Bunda eng avval hal qilinmag'i kerak bo'lg'an narsa – sayitalar (unlilar)ning adadini tayyin qilish, boshqacha aytganda, qaysi shevani asos tutush masalasidir, chunki bizning tilimizda bir qancha shevalar bardir. Va bular savtiy va sarfiy (funitiq va morfulujiy) jihatlarida bir-birlaridan anchagina ayriladurlar. Lekin bu shevalarni umumiyatla ikkiga bo'lmak mumkindir: sing'armo'nizimli va sing'armo'nizmsiz shevalar" (Azimov, Mengliyev 2023, b.141). O'zbek tilida unlilar miqdorini belgilashda ayni shu tasnifga asoslanildi. Singarmonizmga qarshi bo'lganlar 6 unlini yoqlagan bo'lsa, singarmonizm tarafdorlari 9 unlini yoqlab chiqdilar. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlash zarur, ba'zi 6 unli tarafdorlari orasida singarmonizmning mavjudligini e'tirof etuvchilar bo'lgan (Elbek, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy kabi). Abdurahim Yo'ldosh unlilar masalasida ham 9-10, hatto 14, 15 unli kabi fikrlar bo'lgani, eng muhimi, Yangi alifbo markazqo'mining 1-plenumida 9 unli qarori qabul qilingani eng to'g'ri qaror ekanini aytadi. Mazkur qaror asosida qardosh turkiy tillardagi kabi bir tovushga bir shakl masalasi, ya'ni har bir eshitilgan tovushga bir shakl masalasi ilmiy asosda hal qilindi. So'zlarimizni to'g'ri yozishga imkon berdi, ilgari arab harfi bilan yozganda, 50 foiz xato qiladigan o'quvchilar endi 70-80 foizgacha to'g'ri yozishni o'rgandi deydi. U o'zbek tilida 9 ta unli bor ekanligi, uni kamaytirish esa har bir tovushga bir shakl berish asosiga qarshi turishdir deydi (Jamolxonov 2019, b.279). Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, konferensiya boshqa turkiy tillar kabi o'zbek tilida ham singarmonizm mavjudligini e'tirof etadi va o'zbek tilida 9 ta unli mavjud degan qaror qabul qilinadi. Qayum Ramazon unlilarni quyidagicha ko'rsatadi: $A - a, \Theta - \vartheta, E - e, O - o, \emptyset - \emptyset, U - u, Y - y, B - b, I - i$.

Ma'lumki, jadidlar harf tanlashda qardosh Ozarbayjon tajribasidan foydalanishga harakat qilganlar, ulardagi mavjud shakllarni aynan olishga harakat qilganlar. Bu haqda Abdulla Alaviy shunday yozadi: "Şəkl alışı da Azarbaşçandan əcrəlməslik ycyn azarbaşçan səjətlarəny aynan qabul qılqan edi. Faqat bə'zi tavuşların şəkl alışı da yanada ilmiyrək bir yol tytmək ycyn Azarbaşçandan bir az aqrəlgən edik" (Alaviy 1926). May konferensiyasi loyihasida Ozarbayjon alifbosida qo'llanganidek, til oldi "y" unlisi uchun "u", til orqa "u" unlisi uchun "y" shakli olinganligiga e'tiroz bildirilgan. Ozarbayjonning bu xususda "y" masalasida ruslarga, "u"da

esa fransuzlarga ergashishidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkinligi aytiladi. Haqiqatan ham, fransuzlarda “u” til oldi unlisi, “y” esa ruschada orqa tovushini ifodalaydi, lekin bir harfda ruschaga, ikkinchi harfda fransuzsaga taqlid qilish mantiqsizlik ekani ta’kidlanadi. Mana shu sabablardan “y”ni old unlisi, “u” ni orqa unli sifatida qabul qilinadi (Azimov 2023, b.107). Shu bilan birga, “ə”, “ө”, “u”, “ь” harflari, ularning tanlanishi xususida ham alohida to‘xtalangan. Bu harflarni olishda ikkita prinsipga, asosga amal qilingan: 1. Grafika, ya’ni yozmoqqa qulay bo‘lishi; 2. Boshqa turkiy xalqlarning alifbo va loyihalariga bir daraja yaqinlashmaq jihatidan. Shuning uchun ilmiy markaz tomonidan may konferensiyasida tavsiya qilingan “ä”, “ö” shakllarni tashlab, Ozarbayjon alifbosidagi “ə”, “ө” harflari olingan.

“ө” shakli haqida to‘xtalinib, Xalqaro fonetik alifbo (*Международный фонетический алфавит*)da hamda dat tilida shunga o‘xshash “Ф” shakli borligi, biroq bu grafik nuqtayi nazaridan “ө” dan qiyinroq bo‘lgani uchun mazkur shakl olingani aytiladi.

“ь” shaklini olishda esa “yumshatish belgisi” (“мягкий знак”) deb emas, balki ruscha “ы”ning qisqartirilgan shakli deb qabul etilgani, bu shakl Ozarbayjon alifbosida, Leningrad olimlari ilmiy transkripsiyasida hamda boshqa bir qancha loyihalarda (masalan, qarachay loyihasida) borligi bilan izohlangan (Azimov 2023, b.107-108).

24 ta undosh tovush qayd qilinib, ular quyidagi harflar bilan ifodalan-gan: *B – b, C – c, Ç – ç, D – d, F – f, G – g, QI – qI, H – h, J – j, K – k, L – l, M – m, N – n, Ŋ – ŋ, P – p, R – r, S – s, Ş – ş, T – t, V – v, X – x, Z – z, Ž – ž*. E’tibor berilsa, harf tanlashda ba’zi o‘ziga xosliklar ham bor. Masalan, “g” uchu “qI”, “ch” uchun “c”, “sh” uchun “ş”, “y” uchun “j” harflari olingan. “j (je)” tovushining ikki xil varianti (portlovchi-sirg‘aluvchi) ajratilib, 2 ta harf belgilangan: “ç” (portlovchi – *çoça (jo‘ja)*), “ž” (sirg‘aluvchi – *azdar (ajdar)*). Jadidlar tomonidan “ŋ” tovushiga alohida shakl olinib, uni alifboga kiritilishini faqat olqishlash lozim, chunki bu tovush turkiylar-ni eng qadimgi tovushlaridan biri ekanligini tilshunoslar e’tirof etishgan (Ne’matov 1992, b.65; Mahmudov 2006, b.66).

“uv-yv”, “iy-ьy” diftonglari jadidlar o‘rtasida jiddiy munozaraga sa-bab bo‘ladi. Ular alohida unli sifatida e’tirof qilinib, alifbo tarkibiga ham kiritiladi (Jamolxonov 2019, b.49). Tabiiy savol tug‘iladi: jadidlar “ij-ьj”, “uv-yv” harfiy birikmalarini qaysi manbadan olganlar? Yuqorida ta’kid-lab o‘tilgandek, jadidlar alifbo, imlo islohi masalasida tatar tilshunoslari bilan yaqin aloqada bo‘lganlar. Fitrat, Elbek, Qayum Ramazonlar darslik, qo‘llanmalar yozishda Olimjon Ibrohimov, Jamoliddin Validiy, Fotih Say-filarning tatar tili sarf va nahv asarlaridan namuna sifatida foydalanganlar,

nazariy masalalar, ilmiy terminlarni ishlatish borasida ham ularga suyan-ganlar. Fotih Sayfi, A.Sa'diy, Sh.Ahmadiy kabi tatar tilshunoslari o'z taj-ribalarini o'zbek tilshunoslari bilan o'rtoqlashganlar. O'sha davrlarda tatar tilshunoslari orasida ham bir necha oqimlar bo'lib, tatar tilida sakkizta, oltita, o'nta unli mavjud degan fikrni ilgari surganlar. Shu guruhlar ichida "o'ncilar" degan guruh bo'lib, ular sakkizta unli tarkibiga "ij- ɛj", "uv-yv" diftonlarini ham qo'shib, 10 ta unlini ilgari surishadi. Ayni shu "o'ncilar" g'oyalaridan ilhomlanib, o'zbek tilida ham mazkur unlilarni alifboga kiritishgan (Bobomurodova 2002, b.132). Mazkur konferensiyada ba'zilar xuddi avvalgi loyihadagi kabi ularni alohida unli sifatida tavsiya qilsalar ham, ko'pchilik ovoz bilan ular murakkab tovushlar (*unli+undosh*) degan qarorga kelinadi: "Bə'zi ortaqlar bularnıñ bəsit ekənini soylab, əyrim hərflə alişnı təklif qılsalar hēm, qanfıransıya oqajət ilmiy olaraq, bu hərflərnin myrəkkəb ekənini ısbat qıldı hēm bularnı "ij", "ɛj", "uv", "yv" ravnışda yazışqa qarar berdi" (Alaviy 1927, b.24).

Risolada "Qoshaq unlilar" nomi ostida ayni shu diftonglar bo'yicha alohida qoida kiritilgan. Birinchi qoida "ij-ɛj" bo'yicha: "Tilimizdə "ı-i" unlılarǵan sən ketmə-ket kelǵan "j" tavuş ınlılərdə jedirilib, cozuq tavuş bolıb ayıtladı: *Qejma, qejnaq, səjla, kijmə, bij (bek), chij* kabi" (Ramazan 1931, b.7). Keyingi qoida esa "uv-yv" imlosiga bag'ishlangan: "y-u" ınlılərdən sən kelǵan "v" hēm oşal ınlılərgə jedirilib, cozılb ayıtladı: *Suv, qyv, kyv, kyvrək* kabi (Ramazan 1931, b.7). Bizningcha, "Qoshaq unlilar" deb emas, "Qoshaq tavushlar" yoki "Diftonglar" deb atalgani ma'qul, chunki unlilardan keyin kelayotgan "j" undosh tovush hisoblanadi. Tilshunos olim M.Mirtojiyev aytganidek, O'zbek tilidagi diftonglarning ham tarkibidagi ikkinchi unli yarim unlidan iborat. Biroq u undoshga uringanroq unli emas, balki unli tomonidan assimilyatsiya etilgan jaranglidan kelib chiqqan yarim unlidir. Lekin hamma jaranglilar ham so'z tarkibida unlidan keyin qo'llanib, oldidagi unli tomonidan assimilyatsiya qilinavermaydi. Bunday jaranglilar sanoqli miqdorga ega. Ulardan biri lab sirg'aluvchisi v bo'lsa, ikkinchisi til o'rta sirg'aluvchisi y undoshidir (Mirtojiyev 2013, b.80-85).

Ma'lumki, arab yozuvida, qo'lyozmalarda o'zbekcha so'zlar o'zagi-ning oxirida "p" tovushi bilan tugasa-da, asosan "ko'b", "to'b" kabi "b" bilan yozilgan. Yangi qoidada bu jihat ham e'tiborga olingan: O'zbekce ozakniñ axırda "b" tavuş ejilməgəni kəbi yazılmajdır hēm: *kəp, chəp, tap, qap* kabi. Amma qoşumcalarda boqunıñ axır turoqunı halda "p" ajıtılsa ham, "b" yazıladı: *barib, oqib, kelib, baribman, kelibsan, oquban, keliban* kəbi (Ramazan 1931, b.8). Bundan tashqari, arab yozuvida tashdidli harflar, ko'pincha tashdid belgisi qo'yilmasdan yozigani uchu

talaffuzda ham bir harf tarzida aytilgan. Bu holat ham qoida sifatida qayd etilgan: Təşdidlənən tavuşlar ikki hərf bilən yazıladyrlar: *ikki, yetti, sak-kiz, toqquz, ottuz, katta, latta, arra, sassiq, issiq* kəbi (Ramazan 1931, b.9).

Konferensiyada bəzi mutaxassislar “dutarim diñilladi”, “eshagim diñilladi” degan jummalarda “ئ” (“η”) uchun alohida harf olingani kabi “گ” tovushi uchun ham alohida harf olish taklifini beradi. Atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida Xudoyorxon nutqidagi mazkur tovushni “ng” harfiy birikmasi bilan beradi.

(Qodiriy 2014): “Xudoyor qipchoqlar ichida o’skani uchun tili o’zbekchadir. Yenalar ing so’zidagi “ng” harfini “ng” ravishida qalin so’zlaydir. Bu kungi farg’ona o’zbeklarida ham (ayniqsa qishloqlarda) yumshoq “ng” o’rnida qalin “ng” ishlatish ko’b eshitiladir. Hozirg’i isloh qilingan harfimizda bu qalin “ng” ning maxsus shakli yo’qdir. Yozg’anda (n-g’) harflaridan bir tovush yasalsa ham biroq o’qug’anda har kim buni o’z mahrajida chiqarolmas, yanglish o’qur. Bu qalin “ng” o’zbekcha bir necha so’zda gina ishlatilmay ko’b (ellilab) so’zda iste’mol qiling’ani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladir. Masalan mashhurlari: zang’, pang’, lang’, darang’, qalang’i-qasang’i, dang’, to’ng’uz, shang’i, to’ng’illamoq, to’ng’, to’ng’uch va ang’iz, ting’ boshqalar...Eski “ning” “ng” ravishida isloh qilingan. Bu yo’g’on “ng” ham “g” harfining ustiga uch nuqta qo’yulub yozilsamikin...” (b.346). Haqiqatan ham, qipchoq shevalarida bu tovushning mavjudligi ilmiy adabiyotlarda aytib o’tilgan (Mirojijev 2013, b.78-79). Qayum Ramazon ayni shu holatni qoidalashtirishga harakat qilgan: *Yañi, deniz, keldiniz* kəbi sözlər “ñ (ng)” bilən jazıladyr; *qonquz*, *danqilla* kəbi sözlər “q (g’)” bilən yazıladyrlar (Ramazan 1931, b.9).

Risolaning “Bo’g’in tuzilishi” bo’limi ham alohida ahamiyatga molik. Bu bo’limda o’zbek tili bo’g’in tuzilishiga xos qoidalar beriladi. O’zbek tilida, boshqa turkiy tillardagi kabi har bo’g’inda albatta unli bo’lishi shartligi qoidalashtirilgan. Chetdan kirib kelgan so’zlar o’zbek tili qoidalariga moslashtirilishi qayd etiladi.

(Ramazan 1931): Tilimizdə sözlarning boqun tuzilishi şundaj bolady: bir boqunda bir unli tavuş bolıǵı şart, yalqız bir ynsiz tavuşdan boqun tyzilmajdir, şunıñ kabi bir neca unsizdan ham boqun tyzilməydir və boqun başda ikki ynsiz həm qatar kelmajdir. Amma boqun axırda ikki ynsizniñ qatar kelişi bardır. Cet tillerdə boqun başda ikki ynsiz qatar kelə alıǵı bar bolsa həm, byndəj sözlər özbek yazuvda öz tilimizniñ boqun tyzilişi qaydasıya uydırıp jaziladır, yə’ni u boqun ikkiǵe ajrıladyr: A. Birinci boqunda oq ynlı tavuşniñ ahanıya uydırılǵı, “b-i” jake “u-y” arttırıladyr: *istakan, ustul, ustol, işkəf, istənsə* kəbi. B. Birinci ynsizdən sən ynlı

аһанъоҗа ۋјдъҗыльб, “б-і” јакі “у-у” арттыҗыладъ: *givardiyə, tiraktor, pisixologiyə, Firansiyə, tirest, furont, fulot, fbrank* kəbi (b.9-10).

Imlo qoidalariga singarmonizm (unlilar ohani, lab ohani), yo‘g‘on so‘z, ingichka so‘z, ularning yozilishi kabi qoidalar kiritlgan. Unlilar ohaniga shunday ta‘rif berilgan.

(Ramazan 1931): “Sözniң birinchi boqunьda kelyvci ynli tavuqlar sonqь boqunlarda öz çinsleridən bolqan ynlilərnı istajdir. Şuna ynlilə ahanь (ۋjۋunlۋjۋ) dejmiz. Ynlilə ahanь tybəndəgicə boladъ: əzək sөzlərnıñ birinci boqunьda yst unliləri (a, ə), astьnlar (b-i, e) bolsa, sonqj boqunlarda otu (u, y) lar kelməjdır, bundan başqaları kelə berədir: *xatьn, pətir, qьpьq, tirik, kelim* kəbi” (b.11). Lab ohani (uyg‘unligi) ga ham alohida ta‘rif beriladi: “Birinci boqunda bolqan lab ynliləri sonqj boqundaşь ynlilərnı öz çьnslarьoҗa tartadъrlar, şu tabьatqа lab ahanь deymiz. Ədabii tilimizniң ьmlasьda lab ahanь tybəndəgicə qabul qьlьnqandъ: birinci boqunda bolqan lab ynliləri (o, ɵ, u, y) sonqj boqunda qьsqa astlar (b-i) ni-ginə keltirməydir: *otun, tutuq, kəmyr, syryr* kəbi” (b.12).

O‘zlashgan so‘zlarni o‘zbek tili imlo qoidalariga moslashtirish masalasi

O‘zlashgan so‘zlarni mazkur qonuniyatga bo‘rsundirish masalasida ham jadidlar o‘rtasida yetarlicha qarashlar mavjud edi. Yaqub Omon, Botu, Miyon Buzruk kabi jadid ma‘rifatparvarlari singarmonizm tilning rivojiga to‘sqinlik qiladi, til chetdan so‘z olish bilan rivojlanib boradi, bu so‘zlarni singarmonizm ramkasiga solish yaramaydi, degan fikrni bildiradi. Ularga qarata Elbek biz chetdan so‘z olinmasin demaymiz, olinsin, lekin o‘z qolipimizga solinsin, deymiz. O‘z tilimizni ishlab so‘zlarni jonli qilish, bo‘lmaganlarini chetdan olinganda ularni tilimizning temir qonuniga bo‘y egdirish kerak, deydi (Bobomurodova 2001, b.58).

A.Yo‘ldosh ham barcha chet so‘zlarni bu qonuniyatga bo‘rsundirib bo‘lmasligi ba‘zi so‘zlarga erkinlik berish fikrini aytadi: “Birinci guruhning fikricha, biz so‘zlarimizni 100 pirasan singarmonizimlashtira almaymiz. Nega desangiz, ba‘zi bir chet so‘zlar barkim, ularni shu qanung‘a bo‘ysundirsak, aytilishidan ham, ma‘nisidan ham uzoqlashamiz. Masalan, “*komil, kamol, muborak, kalom, ikrom, koshona, hokim*” so‘zlarini “*kamil, kamal, mubarak, kalam, ikram, kashana, hakim*” suvratida yazish to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun bunday so‘zlarni singarmonizim qanunidan xarij qilish kerak, lekin bu yerda shuni ham aytish kerakkim, bir necha so‘zni istisna qilish bilan tildagi singarmonizim o‘zining kuchini yo‘qatmaydi. Shuning bilan birga, bu narsa butun chet so‘zlarni istisna qilish kerak degan fikrni ham ko‘rsatmaydi” (Jamolxonov 2019, b.273).

S.Ibrohim o'g'li singarmo'nizmni tilimiz va imlomizni ma'lum bir qoidaga qo'yish uchun eng to'g'ri yo'l deb hisoblaydi. U istisnochilarni tanqid qilib, ularni qishloq shevalarida singarmonizmga moslashib, o'zlashtirib, istisno so'zlari ro'yxatiga kiritishda, milliy tilning xususiyatlari bilan hisoblashmaslikda, qishloqma-qishloq yurib xalq shevalarini o'rganmaslikda ayblaydi (Zahiriy 1929). Yangi imlo qoidalarida bu muammoga ham e'tibor qaratilib, tildagi mavjud chet so'zlar ham bu qoida asosida yozilishi belgilab qo'yiladi: "Tybi o'zbekcə boləqan səzlər yooqanləq, ingichkəlik tyrkyminin birigə kirədilər. Şunın kəbi başqa tillərdən kəcib o'zbekcəlaşib ammalaşib ketgən səzlər həm yooqanləq, ingichkəlikgə tabe' tutıladırılar" (Ramazan 1931, b.12).

Lab ohani masalasi ham jadidlar o'rtasida jiddiy tortishuvlarga sabab bo'ladi. Singarmonizmning yo'g'on-ingichkalik ko'rinishiga ijobiy munosabatda bo'lgan Elbek lab ohangini "bir talay tartishishg'a sabab bo'laturg'an masalalar qatarig'a" kiritadi. Lab ohangi qirg'iz, usmonli turk shevalarida to'liq saqlangani, lekin o'zbek tili lab ohangidan butunlay uzoqlashganini aytadi (Jamolxonov 2019, b. 244). Ashurali Zohiriy ham lab ohangining o'zbek tilida to'liq bo'lmasa-da, mavjudligini e'tirof etadi (Jamolxonov 2019, b. 304). lab ohani masalasi qirg'iz, qozoqlardagi kabi yuz foiz amal qilmasa-da, o'zbek tilida so'zning ikkinchi bo'g'iniga amal qilishi qoidalashtiriladi (Ramazan 1931, b.12).

Qoidalarda qo'shimchalarga katta o'rin berilgan. Qo'shimchalar 3 ta guruhga ajratilgan: 1. So'z yasovchilar. 2. So'z turlovchilar. 3. Bu qo'shimchalarning ustiga yuklanib keluvchilar. O'zbek tilidagi mavjud qo'shimchalar, ularning fonetik variantlari, so'zga qo'shilib to'g'ri yozilish qoidalari misollar bilan tushuntirilgan. Qoidalar so'ngida chetdan kirib kelgan so'zlar, qo'shimchalar, ularning o'zbek tilida yozilish qoidalari berilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, chetdan kirib kelgan so'zlar o'zbek tili milliy qoidalariga moslashtirilgan bo'lsa-da, lekin ruscha so'zlarning yozilishida qoidalaridan chekinish, ularni iloji boricha aslicha yozishga intilish holatlari kuzatiladi, buni o'sha davr mafkurasi nuqtayi nazaridan tushuntirish mumkin.

Mazkur imlo qoidalarining yana bir e'tirof etishga loyiq jihati o'zbek tili alifbosiga birinchi marta bosh harflar kiritildi, lekin bosh harflar imlosi hali qoidalashtirilmagan edi. Amirof ismlarda bosh harflar masalasiga to'xtalib, bir necha so'zlardan iborat yolg'iz ismlar bu kungacha turlicha yozilib kelgani, ba'zi birovlar bunday ismlarning faqat birinchi so'zlarinigina bosh harf bilan yozishini, boshqa birovlar necha so'zdan iborat yolg'iz ismlarni yozganda ularning har bir so'zining birinchi harfini katta

qilib yozish kerak, chunki bunday yozganda san'at jihatidan chiroyli bo'lib ko'rinadi deydi. Masalan, "Özbekistän Xalq Kemişärlär Shorası", "SSSR Märkäzi Bırasıya Qomıtası" kabi (Adabi tıl va imla toqırısında maqala, qararlar 1934, b. 10-11). Turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan singarmonizm qonuni o'zbek tilida ham asosiy qonun sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, shevalar xilma-xilligi mavjud bo'lgan tilimizda uning amal qilishi, so'zlarda yo'g'on, ingichka unlilarni qo'llash bo'yicha bir qator muammolar mavjud edi. Shuning uchun 29-band bilan bu muammoni hal qilish uchun zudlikda imlo lug'atlari tuzish lozimligi mutasaddilarga alohida vazifa sifatida beriladi.

Xulosa

May konferensiyasida imlo qoidaları tasdiqlanib, hayotga tatbiq etilgan bo'lsa-da, mazkur qoidalarga amal qilish, uning amaliyotga joriylanishi juda sust ketdi. O'rta, oliy maktablarda, hatto matbuotda bir so'zni turli shakllarda yozish, imlo qoidalariga amal qilmaslik holatlari ko'p edi. Qayum Ramazon imlodagi bunday boshbodoqlikning 2 ta sababi borligini aytadi: 1. 1929-yilgi I Til-Imlo konferensiyasining imlo tog'risidagi qarorlarini amalga oshirish uchun tashkiliy, idoraviy va rasmiy munosabatlar. 2. Asosiy bosh sabab imlo tog'risidagi qarorda metodologik, lingvistik va amaliy ba'zi kamchiliklar, yanglishliklar (Adabi tıl və imla toqırısında maqala va qararlar 1934, b.7).

1929-yilgi konferensiyani jadid millatparvarlarning milliy tilshunoslik bo'yicha amalga oshirgan so'nggi faoliyati deb aytish mumkin. Konferensiya o'zbek adabiy tili, uning imlo qoidaları, atamalar bo'yicha tarixiy, o'zbek tilining o'z qonuniyatlarini hisobga olgan qarorlar bo'lishiga qaramasdan, unga siyosiy tus berilib, bu qarorlar markscha-lenincha g'oyalarga to'g'ri kelmasligi, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat qurish jarayonida tilga yangi-yangi so'zlar kirib kelishi natijasida til qoidalarida ham o'zgarishlar bo'lishi, adabiy til tuzishda shahar shevalariga asoslanish zarurligi, singamonizmning tobora yo'qolib borayotgani, unga bog'liq ravishda unlilar miqdorini kamaytirish, adabiy tilni kommunistik g'oyalarga mos ravishda qayta tuzish bo'yicha tanqidiy maqolalar, bahs-munozaralar avj oldi. Ularga eskilikni qo'msash, feodal tuzumiga qaytishni targ'ib qilish, uni ulug'lash kabi ayblovlar qo'yiladi. Otajon Hoshimning fikricha, feodalizm davrida yashagan, o'z asarlarini chig'atoy adabiy tilining (Navoiy, Bobir, Lutfiy va hokazolari) feodal mohiyatidan olgan imlo biz uchun yaroqsizdir. Shuningdek, Oktabrgacha hukm surgan, ya'ni jadidizm imlosi ham bizga ma'qul emasdir. Chunki u jadid adabiy tilining yarim feodal, burjua mohiyatiga asoslanganidir. Chunki u o'z prinsiplarini, imloda goh turk, goh tatar burjua islohchilari imlosiga taqlid qiluvchi jadidlarning

liberal burjua, panturkist, panislomist ustanofkalariga asoslanar edi. Niho-yat “Chig‘atoy gurungi”ning imlo prinsiplari ham bizga ma’qul emasdir. Chunki u o‘zbek tili yuksalishini burjua yo‘liga solishga intilgan (Ata-
 1934, b.22).

Shu tariqa milliy tilning ichki imkoniyatlariga asoslanib tuzilgan imlo qoidolari amaliyotga to‘liq tatbiq etilmayoq bekor qilindi, endi sovet maf-kurasi talablari asosida milliylikdan uzoqlashgan o‘zbek adabiy tili qoida-lari ishlash harakatlari boshlanadi.

Adabiyotlar

- Adabi tl va imla toqrisida maqala, qararlar, II toplam, 1-nci serija* (toplavchi Q.Ramazan). Taşkent.
- Adabi tl va imla toqrisida maqala, qararlar, II toplam, 2-nci serija* (toplavchi Q.Ramazan). Taşkent.
- Alaviy, A. (1926). Yangi layiha. *Maarif va oqitquchi*, 6.
- Alaviy, A. (1927). *Ўзбек янғқъ алғбасънь тузъда асарлар*. Samarqand-Tashkent.
- Ata-
 1934). *Ўзбек жағъ адабий тили ва униғ имласъ хақьда*. Taşkent.
- Atajan. (1927). Baku plenumi natijalari. *Maarif va oqitquchi*, 7-8.
- Azimov, I. (2023). *XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘na-lishlari*. Filol. fanlari doktori (DsC) dissertatsiyasi. Toshkent.
- Azimov, I. ve Mengliyev, B. (2023). Jadidlar unlilar va singarmonizm haqida. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(7).
- Azimov, I. (2024a). Imlo qoidolari tuzish tajribasidan. *O‘zMU xabarlari*, 1(10), 229-233.
- Azimov, I. (2024b). Imlo qoidolari tuzish tajribasidan 2-maqola. *O‘zMU xabar-la-ri*, 1(12), 161-164.
- Bobomurodova, Sh. (2002). *O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli*. Filologiya fanlari nomzodi. diss. avtoref, Toshkent.
- Elbekning tilga oid asarlari* (2001). Toshkent.
- Fitrat, A. (2006). *Tanlangan asarlar IV*, Toshkent.
- Xudoyberdiyev, J. (2024). *O‘zbek tilidan singarmonizmning chiqarilishi*. Toshkent.
- Jamolxonov, H. ve Umarov, A. (2019). *O‘zbek yozuvining XX asr tarixi II*. Toshkent.
- Qodiriy, A. (2014). *Tanlangan asarlar*. Toshkent.
- Qurbonova, M. (1993). *Fitratning tilshunoslik merosi*. Filologiya fanlari nomzodi diss. Toshkent.
- Mahmudov, Q. (2006). *O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi*. Toshkent.
- Mirtojiev, M. (2013). *O‘zbek tili fonetikasi*. Toshkent.

- Ne'matov, H. (1992). *O'zbek tilining tarixiy fonetikasi*. Toshkent.
- Ramazan, Q. (1923). Maktablarimiz va o'zbekcha darslik. *Turkistan*, 201.
- Ramazan Q. (1929). Imlamiz ustida. *Sharq haqiqati*, 11-12.
- Ramazan, Q. (1931). *Ўzbek tiliniñ ʻmla qoidalarʻ*. Toshkent.
- Tahiriy I. (1929). Til, atama va imla bahslari. Til, alifbe va yazuv masalalri. *Qizil Ozbekistan*, 82.
- Yangibayeva, N. (2019), *XX asrning 20-yillarida o'zbek tilshunosligi jarayoni ('Maorif va o'qitg'uchi' jurnali materiallari asosida)*. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref, Qarshi.
- Yo'ldash, Y. (1929). Til, atama va imla bahslari. Imla va yazuvni saddalashtirish tevaragida, *Qizil Ozbekistan*.
- Zahiriy, A. (1929). Til, atama va imla bahslari. Lab ahangi to'g'risida. *Qizil Ozbekistan*, 73.

Extended Summary

In the activities of the Jadids, orthography issues held a significant place. The Jadids of the nation attempted to develop orthographic rules similar to those of the languages of advanced nations, which have strict regulations. Various debates throughout different periods and the speeches of specialists in the press laid the groundwork for the creation of orthographic rules.

As the initial experience of orthographic rules, one could refer to the “Bitim yo‘llari” (Paths of Agreement) pamphlet, prepared by the “Chig‘atoy gurungi” under the leadership of Fitrat. From the perspective of didactic forms such as present programs, guides, textbooks, or study manuals, “Bitim yo‘llari” does not fully correspond to any of these categories. In fact, if we listen to the authors themselves, it is closer to a collection of orthographic rules. Qayum Ramazon also recognizes it as an orthographic guideline.

There were serious debates among the Jadids regarding which aspect (phonetic – sound-related, morphological – grammar-related) to base the orthographic rules on. For example, Shokirjon Rahimiy proposed that the foundation of the national orthography should be phonetics, i.e., writing as heard. However, he pointed out that this principle is not always accurate, as there are words that are written the same in one instance but differently in another. Therefore, it is stated that, in the formulation of these rules, two methods—phonetic (sound-based) and morphological (etymological-morphological)—should primarily be applied, and because there are several dialects in our language, both methods should be used to facilitate teaching and education.

One of the biggest challenges in the development of orthographic rules was the issue of harmony. There were differing views on this matter among the Jadids. According to Otajon Khoshim, harmony is characteristic of all Turkic dialects. He considered it the basis of the Turkic language and a fundamental rule of the language, which does not exist in other languages. The principle of harmony states that each Turkic word is either “thick” or “thin”. The issue of harmony was also seriously discussed at the First All-Union Turkological Congress and the plenums of the Central Committee of the Turkic Alphabet, where I. Alparov, N. Khakimov, and B. Chopponzoda participated and shared their views on the Turkic language, but their opinions were not published in the materials of the conference. Tatar linguist O. Ibrohimov, who participated in the discussion, stated that harmony is a feature of Turkic languages and has been recorded as a separate theory in all academic publications on Turkology. After these debates, harmony was accepted as a fundamental principle of the Uzbek language, and a more refined orthographic rule was created based on this principle. In May 1929, at a language and orthography conference held in Samarkand, the issue of orthography was put on the agenda as a special topic, and a draft of 29 articles for the orthographic rules was discussed and approved.

There were also differing views among the Jadids on how to determine the number of vowels. This disagreement arose due to the existence of three dialects (Karluk, Kipchak, and Oghuz) in the Uzbek language, where there were both

dialects that strictly adhered to harmony and those that violated it. Abdurahim Yoldosh mentioned that there were opinions supporting 9-10, even 14-15 vowels, but emphasized that the decision of the 1st plenary session of the New Alphabet Central Committee to adopt 9 vowels was the most correct one. Based on this decision, the issue of one sound having one form, as in related Turkic languages, was scientifically resolved.

The section on “Syllable Structure” in the pamphlet is also significant. In this section, rules specific to the syllable structure of the Uzbek language are provided. Similar to other Turkic languages, it is established that every syllable in Uzbek must contain a vowel. Foreign words are adapted to fit the rules of the Uzbek language. The orthographic rules include guidelines on harmony (vowel harmony, lip rounding harmony), the writing of thick and thin words, and their correct spelling.

There were also varying opinions among the Jadids regarding how to treat borrowed words within this framework of harmony. Reformist intellectuals such as Yaqub Omon, Botu, and Miyon Buzruk believed that harmony hindered the development of language and that the language evolves through the acquisition of foreign words. They argued that it was inappropriate to force these borrowed words into the framework of harmony. In response, Elbek stated that they did not oppose the borrowing of foreign words, but emphasized that they should be adapted to the structure of the Uzbek language. He argued that while foreign words could be accepted, they should be transformed to comply with the fundamental laws of the language.

A significant emphasis was placed on suffixes in the rules. Suffixes were divided into three groups: 1. Word-forming suffixes, 2. Suffixes that modify word types, 3. Suffixes that are added to others. The existing suffixes in the Uzbek language, their phonetic variants, and their correct spelling when attached to words were explained with examples. At the end of the rules, the orthographic treatment of foreign words and suffixes was outlined. As noted above, although foreign words were adapted to the national rules of Uzbek, there was still a tendency to deviate from these rules, particularly with Russian loanwords, which were often written as they were originally. This can be understood from the ideological perspective of the era.

The political reasons for the incomplete implementation of the orthographic rules also played a role. After the conference, political pressures on national intellectuals increased. Thus, the orthographic rules, which were based on the internal possibilities of the national language, were not fully implemented and were eventually abandoned. Subsequently, efforts to create a version of the Uzbek literary language, which distanced itself from national identity in line with Soviet ideological requirements, began.